



## ABDUQODIR HAYITMETOV TADQIQOTLARIDA QIYOS USULI

**Muallif:** Sevinch Omonova <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Navoiy davlat universiteti magistranti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20196940>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada atoqli adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetovning tadqiqotchilik mahorati haqida mulohazalar bildirilgan. Alisher Navoiy ijodining adabiy ta’sir masalalari Faxri Hirotiy, Lutfiy, Bobur asarlari bilan qiyosiy o’rgangan maqolalari tahlilga tortilgan. Olimning tadqiqotlari o’zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotining deyarli hamma sohalarini o’zida to’la ravishda aks ettirib, fanning rivojiga katta va arzirli hissa bo’lib qo’shilganligi xususida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Faxri Hirotiy, tadqiqot, badiiy mahorat, qiyosiy tahlil, tazkira, lirika, tahlil, talqin, adabiyotshunos.

O‘zbek adabiyotshunoslik ilmi rivoji hamda navoiyshunoslik sohasiga katta hissa qo’shgan atoqli olim Abduqodir Hayitmetov ilmiy merosi fanimiz rivojiga qo’shilgan munosib hissadir.

Abduqodir Hayitmetovning hayoti tinimsiz ijodiy izlanish va ilmiy yangiliklar yaratish bilan o’tgan desak, mubolag’a bo’lmaydi. Ayniqsa, XV asr adabiyotiga daxldor har bir manba yoki asar uni tadqiq va talqiniga ilhomlantirgan. “XV asr adabiyotiga oid yangi manbalar” nomli maqolasida u XV asr nafaqat o’zbek adabiyoti, balki barcha turkiy xalqlar adabiyoti hamda madaniyati tarixida alohida o’rin tutishini ta’kidlab, bu davrga tegishli har bir adabiy-tarixiy manbani sinchiklab o’rganishga da’vat qiladi [1:123]. Hayitmetov Navoiy davri adabiy hayoti bo’yicha qilingan ilmiy ishlarda adabiyotshunos olim va shoir Faxriy Hirotiyning “Radoyif ul-ash’or” nomli o’ziga xos bir tazkirasining e’tibordan chetda qolib kelganiga mutaxassislar e’tiborini tortadi [1:124]. XVI asr boshlarida Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasini birinchi bo’lib fors tiliga o’girgan Faxri Hirotiy asarida XV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshlarida yashagan ijodkorlar asarlaridan ko’plab qimmatli namunalar berganiga to’xtaladi. “Radoyif”da Navoiy tazkirasiga kirgan shoirlarning g’azallaridan xarakterli namunalar berilib, bu davr g’azalchiligi haqida juda qimmatli ma’lumotlar keltirilganini aytadi. Agar Navoiy tazkirasiga bo’yicha ba’zi shoirlarning bir-ikki bayt she’rigina ma’lum bo’lsa, Hirotiyning asari orqali ularning butun-butun g’azallari haqida fikr yuritish mumkin bo’ladi. Hayitmetov asarning nomlanishini: “Kitob o’z ichiga ko’proq radifli g’azallarni olgani bois “Radoyif ul-ash’or” deb atalgan [1:124], deb izohlaydi.

U Hirotiyning mazkur asarini o’ziga xos antologiya sifatida ta’riflab, unda o’zbek adabiyoti uchun ham g’oyat muhim dalillar uchrashini qator misollar orqali ko’rsatadi. Tazkirada Navoiyning Foni taxallusi bilan yozgan ellikdan ortiq forsiy g’azalining kiritilgani ham kelajakda shoir forsiy devonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda katta ahamiyatga ega bo’lishini ta’kidlaydi. XX asrning 40-yillarida S.Ayniy



Navoiyning forsiy she'rlarini to'plashga kirishib, uning yigirma beshga yaqin she'rini taxminiy aniqlaganini aytar ekan, bunda ("Radoyif ul-ash'or" – S.O.) ellik g'azalning har biriga "Amir Alisher go'yad" deb yoki "Mavlono Mir Alisher ba taxallusi Foniyo go'yad" deb aniq aytib qo'yilganini eslatadi [4:124].

Olim Faxriy majmuasidan o'rin olgan har bir ijodkorning adabiy merosning umumiy qiymatiga baho beradi. Bu davr adabiyotida an'anaviy yondashuv ustuvor bo'lsa-da, iste'dodli ijodkorlar o'z zamoni ruhini ifodalashga intilib, poetik tasvir imkoniyatini boyitganini ta'kidlaydi hamda: "Ularni shaklboz debgina baholash biryoqlamalik, shu davr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilmaslik bo'ladi" [1:136-137], – degan xulosaga keladi. Uning deyarli ko'pchilik tadqiqotlarida bo'lganidek, bu maqolasida ham Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodi boshqa ijodkorlarning asarlariga baho berishda bosh mezon qilib olingan.

Xoh Navoiy salafлари bo'lsin, xoh mutafakkir shoir izdoshlari mavzusida bahs yuritsin, A.Hayitmetov ularning har birida yangi fikr, yangi tahlillar o'rtaga tashlashga intiladi va ko'pincha ko'zlangan maqsadni qo'lga kiritadi. Shu ma'noda uning "Sehrli nazm" nomli maqolasi ham ibratlidir. Unda Lutfiy ijodidagi yetakchi asosiy fazilatlarini tadqiq etgan va shoir asarlarining badiiyati o'z davri she'riyatiga kuchli ta'sir o'tkazganini xarakterli dalillar bilan ochishga erishadi va: "Lutfiy she'riyati shunday adabiy zaminki, bu zamindan Navoiy kabi daholar yetishib chiqqan"[2:92]ini yozadi. Lutfiy she'riyati ishq go'zalliklarini yoritish, vafo va sadoqatni ulug'lash, tilining sodda va xalqonaligi bilan har qanday o'quvchini maftun etadi. Shu bois olim uning devonini "Muhabbat kitobi", deya ta'riflaydi. Hayitmetov buyuk shoirning uslubiga xos jozibali belgi va xususiyatlarni ham nazardan soqit qilmaydi. Bu esa uning lutfiyshunos sifatida o'z fikrini bayon eta olganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Lutfiy va Navoiy mavzusida ham qiziqarli mulohazalarni o'rtaga tashlaydi [2:94].

Boshqa bir maqolasida olim Lutfiy va Alisher Navoiy munosabatlariga to'xtaladi. "Majolis un-nafois" tazkirasining yangi topilgan qo'lyozma nusxasiga tayanib, uning xotimasida Navoiyning Lutfiy bilan bahor kunlarining biridagi uchrashuv voqeasi tahliliga diqqat qaratadi. Yosh Alisherning bir emas, bir necha marta shoir bilan uchrashganini, ijodiy qiyofasi shakllanishida Lutfiyning juda katta ta'siri bo'lganini diqqatga molik misollar orqali asoslashga harakat qiladi. Shuningdek, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida Navoiy Lutfiyning Hofizga tenglashtirganini ham nazardan soqit qilmaydi.

Ko'pincha A.Hayitmetov ilmiy tahlilda qiyos usulidan foydalanadi. Buni uning Sakkokiy va Lutfiy ijodini qiyosan tekshirgan maqolasida ham kuzatish mumkin. Navoiy ma'lumotlariga tayangan holda u Sakkokiyni ko'proq Turkistonda, Lutfiyning esa Xuroson, Eron, Iroq tomonlarda shuhrat topganini qayd etadi. Sakkokiyni Turkiston uslubi vakili, Lutfiyning esa Xuroson uslubi vakili sifatida ko'rsatadi. Bu fikrini olim keyingi tadqiqotlarida ham davom ettiradi va Turkiston uslubi vakillariga Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Bobur, Mashrab, So'fi Olloyor, Turdi, Muqimiy, Zavqiy kabi ijodkorlarni kiritadi. Bunday tasniflashda olim ular ijodiga xos bo'lgan jonli xalq tiliga yaqinlikni ko'rsa, an'anaviy mavzularga, obrazlarga keng o'rin berishda, forsiy til ta'siri seziladigan Xuroson uslubiga Navoiy, Nishotiy, Munis, Ogahiy, Komil, Avaz kabilarni kiritadi. [3:5]

Hayitmetov Navoiy dahosiga ta'sir ko'rsatgan o'zbek shoirlari ijodiga alohida e'tibor qaratgan. Uning "Alisher Navoiy va Yusuf Amiriyo" maqolasida [2:85-92] ayni shu jihat ko'zga tashlanadi. Olim "Majolis"ga asoslanib, yaxshi she'rlari bilan shuhrat qozongan Amiriyo ijodining o'ziga xos tomonlarini tahlil etadi. Uning Turkiyadagi

Dorilfunun kitobxonasida saqlanayotgan yagona nusxadagi devoni mavjud bo'lsa-da, tabdil etilib, o'rganilmaganiga diqqat qilib, uni o'rganish va xalqqa yetkazish adabiyotshunoslikning galdagi vazifalaridan biri deb ko'rsatadi [2: 85-92].

Olim Amiriyning Navoiy ijodiga ta'sirini "Maxsus" radifli g'azali orqali dalillaydi. Uningcha, Navoiy she'riy uslubining shakllanishiga Amiriyning lirikasidan ko'ra epik ijodi ko'proq ta'sir ko'rsatgan. "Dahnoma" bilan "Farhod va Shirin" dostonini qiyoslagan tadqiqotchi ikkala asar ham barcha ishqiy nomalar va ishqiy-romantik dostonlar kabi aruzning hazaji musaddasi maqsur yoki mahzuf vaznida yozilganini ko'rsatadi. Hayitmetov Amiriy "Dahnoma"da ko'proq Nizomiy dostonidagi nomachilik an'alariga amal qilgani, undagi ishqiy maktublar Xorazmiy "Muhabbatnoma"sidagi kabi faqat oshiq tilidan yozilmaganini ta'kidlaydi. U Amiriyda oshiq nomidan bitilgan maktublar qanchalik haroratli va go'zal bo'lsa, ma'shuqa nomidan bitilgan go'zalning nozik his-tuyg'ulari bilan to'la maktublar ham ta'sirli, nazokatli ekaniga e'tibor qaratadi. Navoiy "Dahnoma"ga xos g'oyaviy-badiiy jihatlarni sinchiklab o'rganib, ularni rivojlantiradi. Bu qarashini olim ikkala dostonidan keltirilgan misollar asosida isbotlaydi.

Amiriy ijodining Navoiy ijodiga yana bir ta'sirini "Dahnoma"ning kirish qismida Boysung'ur Mirzo saroyidagi ilm va san'at ahlini madhi bilan Navoiy "Farhod va Shirin" dostonida Mehinbonu saroyidagi Shirinni qurshagan, fan va san'atning turli sohalarini mukammal egallagan olima, shoira va san'atkorlarni ta'riflanganida ko'radi. "Dahnoma"da ham, Navoiy dostonida ham saroydagi ilm va san'at kishilari soni o'ntaligi, ularni sharhlashda ham yaqinlik borligi Navoiyning Yusuf Amiriy asarlarini g'oyat sinchiklab o'qib, ulardagi barcha e'tiborli jihatlardan foydalanganini ko'rsatadi. Shu tariqa Navoiy dahosi teran turkiy ildizlarga ega ekanini olim yana bir bor isbotlaydi.

Abduqodir Hayitmetov Navoiyning izdoshlari, xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiyotiga bag'ishlab qator maqolalar yozgan. Uning Bobur haqidagi 50-yillarning oxirlaridagi dastlabki maqolasi "Zahiriddin Muhammad Bobur" (4)nomli bilan e'lon qilingan. Unda shoirning lirik va ilmiy asarlari, hayoti va she'riyatidagi o'xshashliklar yoritib berilgan. "Buyuk shoir va olim"(5:82)maqolasida esa Bobur ijodiga Navoiyning ta'siri masalalari tahlilga tortiladi. Boburning o'nlab g'azal va ruboiylari tatabbu tarzida yozilgani uning Navoiyga ehtiromini bildirishini aytgani holda Bobur she'riyati hayot masalalari, turmush ziddiyatlari, ifodaning ravonligi bilan ajralib turishi kuzatadi. Bular bilan bir qatorda Hayitmetov Bobur shaxsiyatidagi xislatlarni shoirlarga xos emotsionallik, olimlarga xos sinchkovlik, har masala yuzasidan chuqur mulohaza yuritishga moyillik, jangchilarga xos dadillik, donishmand davlat arboblarga xos tadbirkorlik, ehtiyotkorlik, maqtanishdan o'zni tiyish, o'ziga, kishilarga talabchanlik fazilatlarini jamlanganligini ham birma bir asoslab beradi. Olimning Bobur o'zbek she'riyatiga bir qancha yangiliklar olib kirganini, ijodiyotining mavzu-mundarijasini uning taqdiri va shaxsiy hayot yo'li bilan bog'laydi. Darhaqiqat, yurt sog'inchi, hijron iltirobi uning turmush tarzidan kelib chiqqani shoirning she'rlarini mavjud an'anadan uzoqlashtirib, mohiyat e'tibori bilan real voqelikni aks ettirishini aytadi. Shu tariqa adabiyotni turmush tarzi bilan bog'lash, xasbi hol ko'rinishidagi she'riyat shoir ijodida alohida o'rin tutishiga e'tibor qaratadi. Boburning "*Kim ko'rar xurshidni ul mohsiymo bo'lmasa...*", "*Ko'rmagay erdim jamoling olamaro koshki...*", "*Qaro zulfing firoqida parishon ro'zgorim bor...*" kabi misralar bilan boshlanadigan g'azallari misolida bu ikki shoir o'rtasidagi ustozshogirdlik munosabatini ko'rsatish orqali Bobur erishgan g'oyaviy-badiiy

yutuqlarning katta qismi buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy she'riyati, uning o'lmas nomi bilan bog'langanligini asosladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Abduqodir Hayitmetov tadqiqotlari o'zbek adabiyotshunosligi taraqqiyotining deyarli hamma sohalarini o'zida to'la ravishda aks ettirib, fanning rivojiga katta va arzirli hissa bo'lib qo'shildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ҳайитметов А. XV аср адабиётига оид янги манбалар // Ҳаётбахш чашма. – Т. 1974. – 166 б.
2. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти.-Т.: “Фан”, 1996.-162 б.
3. Ҳайитметов А. Ўзбек адабиётида халқчиллик тенденцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. №5. 1990.-5-10 б.
4. Ҳайитметов А. Захириддин Мухаммад Бобур // Комсомолец Узбекистана, 1958. 15 апрель.
5. Ҳайитметов А. Буюк шоир ва олим // Мерос ва ихлос. – Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.